

JOURNAL OF NATURAL SCIENCE

№ 2 (7) 2022

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э.А.–СамДУ к.ф.д., профессор7. Насимов А.М.–СамДУ к.ф.д., профессор8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор9. Тошев А.Ю.- ТТЕСИ к.ф.д, доцент10. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц11. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.12. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.13. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф14. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.15. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц16. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.17. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц18. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.19. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)20. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц21. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)22. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц23. Муминова Н- ЖДПИ к.ф.н., доц24. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц25. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

TABIATSHUNOSLIK TO`GARAKLARINING XILLARI

Xalmatova Muxayyo- magistrant
Jizzax davlat pedagogika instituti

Annatsiya. Ushbu maqolada biologiya to`garagining xillari va ish olib borish hususiyatlari keltirib o`tilgan.

Kalit so`zlar. “Gullar bayrami”, “o`rmon bayrami”, “Qushlar bayrami”, botaniklar, zoologlar, fiziologlar, genetiklar, qishloq xo`jalik tajribakorlari.

Аннотация:Эта статья дает вам краткий обзор биологии Упоминаются свойства го.

Ключевые слова: Праздник цветов День метри День птиц ботаники зоологи физиологи генетики сельскохозяйственные экспериментаторы.

Annototion. In this article, the biology circle is working on a variety of ya go properties are mentioned.

Keywords. “Hower Festival”, “forest festival”, “bird festival”, botanists, zoologists, Physiologists, geneticists, agricultural experimenters.

Yosh tabiatshunoslar to`garagi asosan bir xil yoshdagi o`quvchilarni birlashtirishi kerak. Agar to`garakda har xil sinf o`quvchilari ishlaydigan bo`lsa, uni seksiyalarga bo`lish lozim. Masalan, V-VI sinf o`quvchilarini botanika, VII-sinf o`quvchilarini zoologiya predmeti mazmunidagi olib boriladigan ishlar seksiyasiga birlashtirish mumkin.

O`quv muassasida umumiy tabiatshunoslar to`garagini tashkil qilib, unda yosh botaniklar, yosh zoologlar, yosh fiziologlar, yosh genetiklar seksiyalarini tuzgan ma`qul. Har bir seksiya 20-30 nafar o`quvchidan iborat bo`lishi mumkin. Undan ko`p bo`lsa, har bir o`quvchiga yetarlicha topshiriq berish va e`tibor susayadi.

Bunday to`garaklar :botaniklar, zoologlar, fiziologlar, genetiklar, qishloq xo`jalik tajribakorlari va boshqa nomlar bilan tashkil etiladi. Ba`zi o`quv muassasalarida bu to`garaklar sinfdan tashqari individual va epizodik gruppasi bilan shug`ullanayotgan o`quvchilarni o`z ichiga oladi.

To`garak ishini tashkil qilishdan oldin tabiat yoki chorvachilik fermer xo`jaliklariga sayohat uyushtirib shu vaqtda o`qituvchi qiziqib qolgan o`quvchilarga yosh tabiatshunoslar to`garagini tashkil etishni taklif etadi. O`quvchilarning yosh tabiatshunoslar to`garagida ishlash istagi ko`pincha qiziq ommaviy tadbirlar, masalan, “Gullar bayrami”, “o`rmon bayrami”, “Qushlar bayrami” dan keyin ma`lum bo`lib qoladi.

Bu to`garak o`quvchilarning ko`ngilli tashkilotidir. Ammo, o`quvchi bu to`garakka a`zo bo`lib kirganlardan keyin ular muayyan qoidalarni bajarib (nizom

shartlari) bajarib borishi kerak. Bu qoidalarni yosh tabiatshunoslar dastlabki yig`ilishlarning birida ishlab chiqadi va qabul qiladi. Yosh tabiatshunoslarga tegishli bu hujjatning mazmuni bo`lishi mumkin. Misol tariqasida bir o`quv muassasidagi botanika to`garagining nizomini keltirib o`tamiz.

1. O`simliklarning hayoti bilan qiziqadiga va to`garak nizomini (ustavi) oladigan har bir oladigan har bir o`quvchi yosh botaniklar to`garagi a`zosi bo`la oladi. O`quvchi istagini to`garak rahbari yoki boshlig`iga yozib ma`lum qiladi.

2. To`garakning har bir a`zosi quyidagi ishlarni bajarishga: a) tirik tabiat burchagidagi biror o`simlikni parvarishlab uni kuzatishi, tabiatdagi o`simliklar ustida tajribalar yoki kuzatishlar o`tkazishi; b) kuzatuv kundaligini yozib to`ldirib borishi; v) ko`pi bilan ikki haftada bir marta o`tkaziladigan to`garak mashg`ulotiga qatnashishi; g) yosh tabiatshunoslar (botaniklar) devoriy gazetalar byullitenlar, montajlari, jadavallar chiqarishda faol ishtirok etishi; d) tirik tabiat burchagi va o`quv-tajriba maydonchasi agronomiya bo`limida yaxshi va vijdonan navbatchilik qilishi; e) boshqa o`quvchilarni ishga jalb qilishi lozim.

3. Vijdonan qilingan navbatchilik, kuzatishlarning yaxshi yozib borganligi, ma`ruzalar tayyorlash, gazetalar chiqarish, montaj qilish, gerbariyalar yig`ib yasash, kolleksiyalar tayyorlash va yosh tabiatshunoslar tomonidan bajarilgan boshqa foydali ishlar maxsus daftarga yozib qo`yiladi. Yosh botaniklarning ishlari bir necha marta yakunlanadi va eng yaxshi ishlar mukofatlanadi.

4. Nizom qoidalarini bajarmagan o`quvchilar yosh tabiatshunoslar (botaniklar) umumiy yig`ilishining qarori bilan to`garakdan chiqariladi.

To`garak har yili o`quv yilining boshida yangi ishiga havas bildirgan ayrim o`quvchilar to`garakka istisno tariqasida boshqa vaqtda ham qabul qilinishi mumkin. To`garakka a`zo bo`lib kirishdan oldin bo`lg`usi yosh botanik shu to`garak nizomi bilan tanishib chiqishi va unda ko`zda tutilgan vazifalarni bajarishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Barkamol avlod- O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. "Sharq" nashriyoti 1997
2. N.M. Verzilin, V.M. Korsuniskaya. Biologiya o`qitishning umumiy metodikasi. Toshkent "O`qituvchi" 1983
3. J.O. Tolipova. A.T. G`ofurov Biologiya ta`lim texnologiyalari. "O`qituvchi" 2002